




TALABA-YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY- PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: **Ro'ziboyeva M**

Turon universiteti Andijon filiali Pedagogika magistranti

Abdumalikov Fayzullo Xalimjon o'g'li

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-sentabr 2026 yil
Ma'qullandi: 5-sentabr 2026 yil
Nashr qilindi: 9-sentabr 2026 yil

KEY WORDS

milliy iftixor, talaba-yoshlar, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy identifikatsiya.

ABSTRACT

ushbu ilmiy maqolada muallif tomonidan talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Unda milliy iftixor tushunchasining mazmun-mohiyati, uning yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit, oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining o'ziga xos jihatlari yoritiladi.

Yurtimizga munosib, jahon tanigan ajdodlarimizga loyiq, sobitqadam, ma'naviyati yuksak barkamol insonni tarbiyalash jarayonida jamiyat rivojlanishiga monand o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglash va ularga mos keladigan chora-tadbirlarni aniq belgilash katta ahamiyatga egadir. Chunki, mustaqil yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari barkamol shaxs kamoloti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar uning o'zligini anglab borishi va o'z ustida chuqur ishlagan tarzda Vatan ravnaqi hamda yurt taraqqiyoti uchun sidqidildan mehnat qilish maqsadida butun imkoniyatlarini, aqlini safarbar etishga undaydi. Islohotlar va ularning tom ma'nodagi mohiyatini esa birinchi navbatda yoshlarning ilg'or vakillari bo'lmish talabalar anglaydilar.

Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, qalbida Vatanga muhabbat, uning kelajagiga ishonch, milliy ongi rivojlangan, milliy iftixor tuyg'usi jo'sh urgan mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning eng samarali usullarini amaliyotga joriy etish hamda shu orqali millatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi milliy istiqlool g'oyasini ongiga singdirishga oid muhim qonuniyatlarni bilish maqsadga muvofiqdir. Bu xayrli ish eng avvalo, har bir talaba ongiga yon-atrofdagilar bilan bo'ladigan muomalada eng ilg'or va Vatan mustaqilligiga xizmat qiluvchi fikr-g'oyalarni teran tahlil etish va ongli faoliyatida ularga amal qilishga xizmat qiladi", - deb ta'kidlaydi psixolog V.Karimova¹.

O'tgan asrning yetmishinchi yillaridagina milliy tuyg'u va uning mohiyati jiddiy o'rganila boshlandi. Masalan, N.Jandildin milliy psixologiya mohiyatini tahlil etar ekan, milliy tuyg'u va

¹ Vasila Karimova. Ijtimoiy Psixologiya. Fan va texnologiya. 2012. yil

uning psixologik xususiyatlarini yoritishga urindi. Uning fikricha, "Milliy tuyg'u nafaqat o'z xalqi, balki boshqa millatlarning insoniyat turmush tarzining o'zgarishi bilan rivojlanadigan inson ruhiyatining o'ziga xos ko'rinishlarining murakkab majmuidir. Bu o'zgarishlar xalqning taqdiri, g'ururi va iftixoriga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi, uning tarixdagi o'rni va boshqa millatlar bilan munosabatlarida aks etadi²".

Bizning fikrimizcha, N.Jandildin milliy tuyg'ularning ijtimoiy determinizm, ya'ni, tabiat, jamiyat hodisalari hamda inson irodasi, hulq-atvori qonuniyatlarining o'zaro ta'siri, aloqadorligini to'g'ri ko'rsatadi. Zero, o'zligini anglay olgan millatgina o'zga millatlarning urf-odatlarini, an'analari, e'tiqodi, turmush tarzi va dunyoqarashini tabiiy qabul qiladi.

Milliy iftixor tuyg'usi milliy mansublikni ifoda etishga xizmat qiladi. Manbalarda milliy tuyg'u, milliy mansublik milliy o'z-o'zini anglashdan hosil bo'lishi, uning negizida o'z millati, an'analari, urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzi, milliy-ma'naviy qadriyatlarga mustahkam bog'langanlik aks etishi, umumiy maydonga egalik qiladigan, bir xil hayot kechiradigan, bir tilda so'zlashadigan insonlarning etnik birligi negizida shakllanishiga urg'u beriladi.

Milliy iftixor tuyg'usi millatchilik emas, balki uning antonimi bo'lgan ijobiy insoniy fazilat hisoblanadi. Zero, millatchilik asosida:

- 1) ma'lum millatni barcha millatlardan ko'r-ko'rona ustun qo'yuvchi etnopsixologik yo'l-yo'riqlar majmuasi;
- 2) shovinistik kayfiyatdagi siyosiy g'oyalar tizimi;
- 3) etnik buzg'unchilik, shovinistik g'oyalarga asoslanuvchi jamoatchilik harakati aks etadi.

Millatchilik ijobiydan salbiyga tomon rivojlanib boruvchi quyidagi sifatlarga asoslanadi: Vatan uchun jon fido etish, millat hayoti va taqdiri uchun jonkuyarlik, ekstremal ko'rinishdagi militaristik, shovinistik va hatto fashistik g'oyalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Millatchilik psixologiyasi milliy psixologiyadan mustaqil holda yoki o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U siyosiy qiziqishlarning o'ta yuqori darajaga ko'tarilishi sababli yuzaga keladi va o'z millati hamda o'zga xalqlar, millatlar to'g'risida noto'g'ri tushunchalarga ega bo'ladi.

Milliy tuyg'u, g'urur va iftixor tuyg'ulari Vatanni sevis, milliy madaniyatni anglashdagi quvonch, milliy rivojlanish va xalq manfaati uchun xizmat qiladigan siyosiy harakatlar va g'oyalarning haqqoniyligini anglab etish kabi tuyg'ular negizida shakllanadi.

Shaxsda milliy iftixor tuyg'usining shakllanishi uchun boshlang'ich asos bu - milliy mansublik bo'lib, u o'zida muayyan millatga xos etnopsixologik xususiyatlarni namoyon eta olishni ifodalaydi.

Milliy iftixor tuyg'usining shakllanishiga asos bo'luvchi omil milliy o'z-o'zini anglashdir. Milliy o'z-o'zini anglash millatning rivojlanish va taraqqiyot tarixini yaxshi bilish, taraqqiyotning turli bosqichlarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosini to'g'ri talqin eta olish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglay olish, ijobiy milliy-mental xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, salbiy xislatlar (masalan, mustaqil fikrga ega bo'lmaslik, ota-ona yoki yaqinlarga tobe bo'lib yashash, o'ta andishalilik, qat'iyatning etishmasligi)ni ko'ra olish, milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini etarli darajada baholash, Vatan taqdiri uchun befarq bo'lmaslik, uning istiqloli va istiqboli uchun kurashish demakdir.

Milliy tuyg'u nima o'zi? Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, milliy tuyg'uda sub'ektning ob'ektga bo'lgan muhim munosabati aks etadi. Shaxsning his-tuyg'ulari psixofiziologik tabiatga ega, ijtimoiy psixologiyaning nodir hodisasi bo'lgan milliy tuyg'u sub'ektga xos individual his-

² <https://gigafox.uz>

tuyg'ular ta'sirida shakllanadi. Milliy iftixor tuyg'usi negizida kuyunchaklik, millat farzandi bo'lganlikdan fahrlanish, odamlarga nisbatan mehr-muhabbat, o'zaro g'amxo'rlik, rahm-shafqat, o'zgalar manfaatini o'z manfaatini ustun qo'yish, bag'rikenglik, Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslik, millat tarixidagi fojealardan qayg'urish, olijanoblik, fidoiylilik, vatanparvarlik, baynalmilallik, mehnatsevarlik, hayratlanish, shonli tarix hamda milliy qahramonlardan fahrlanish tuyg'ular ko'zga tashlanadi.

“Har bir xalq o'z urf-odatlariga ko'ra fikrlaydi, mehnat qiladi, yaratadi, dam oladi, turmush tarzini yo'lga qo'yadi, ular asosida qayg'uradi, yig'laydi, xafa bo'ladi va umidsizlanadi, o'z bilganicha kuladi, quvonadi, o'z yo'rig'ida yuradi, o'zicha qo'shiq kuylaydi, musiqalar yaratadi, o'z tushunchasiga yarasha gapiradi, namoyish etadi, nutq so'zlaydi, kuzatadi, san'at asarlarini yaratadi va hokazo. Har bir xalqning o'z urf-odatlari, an'analari, tartib-qoidolari, o'z dunyoqarashi, siyosiy qarashlari, o'ziga xos davlat institutlari mavjud.

Olim I.Ilin rus yoshlarida milliy tuyg'uni shakllantirish masalasiga e'tiborni qaratarkan, bu yo'lda samarali bo'lgan omillarni alohida ko'rsatadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- milliy madaniyat va tarix;
- milliy til va unga bo'lgan e'tibor (oilada ona tiliga hurmat ko'rsatishga erishish, uning boyligi, aniqligi, ravshanligi, ta'siri haqidagi suhbatlarni tashkil etish, bunda xalq og'zaki ijodi namunalari, qo'shiqlar, allalar, ertaklar va boshqalardan samarali foydalanish)³;
- tarix o'qituvchilarining sub'ektiv ta'siri;
- oilaning roli;
- ommaviy axborot vositalarining o'rni;
- milliy hudud.

I.Ilin o'z tadqiqotlarida yoshlarda milliy ongni shakllantirishning ta'sirchan omili sifatida millat tarixini ko'rsatadi va bu o'rinda buyuk rus shoiri A.S.Pushkinning quyidagi so'zlarini keltiradi: “Ota-bobolarning sharaflari ishlari bilan fahrlanish mumkingina emas, zarurdir, ularni hurmat qilmaslik juda uyatli jur'atsizlik va irodasizlikdir⁴”.

Muallif milliy hududning yoshlarda milliy ongni shakllantirishda ta'sirchan omillardan biri ekanligiga urg'u berib, milliy hududni “xalqning ma'naviy-ruhiy yaylovi” deb ataydi.

“Milliy tuyg'u” tushunchasining mohiyati O.Bauer asarlarida ham ochib beriladi. “O'zga millatlar bilan yaqindan tanishuv ko'pincha o'z millatiga muhabbat, u bilan fahrlanish tuyg'usini uyg'otadi, - deya urg'u beradi⁵ muallif, - ammo bu muhabbatning kuchi jamiyatning turli sinflari va alohida shaxslarida turli ko'rinishda namoyon bo'ladi”. Muallifning bu boradagi qarashlari yoshlar o'rtasida milliy tarbiyani tashkil etish doirasida ularda baynalmilallik tuyg'usini tarbiyalashga yordam beruvchi ta'sirchan vositalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi.

O'zlarini vatanparvar deb biluvchilar milliy iftixor tuyg'usiga egalikni militaristik shovinizm (o'taketgan millatchilik, millatlar o'rtasida dushmanlik va nafratni targ'ib etish) g'oyalari bilan adashtiradilar. Shu sababli ko'pchilik amerikalik yoshlar mamlakatning haqiqiy fuqarosi bo'lishning mohiyatini anglamaydilar” deya mulohaza yuritadi.

³ <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Pushkin

⁵ https://t.me/s/mutolaa_sehri.before

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar va olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, amerikalik talabalarining asosiy katta qismi "fuqaro" tushunchasi mazmunini anglamaydilar, shu bilan birga ma'lum bir davlatning fuqarosi bo'lishni istamaydilar. Shuning sababini "fuqarolik zimmasiga katta mas'uliyat, ko'plab majburiyatlarni olish" ekanligi, bunday mas'uliyat va majburiyatlarni zimmalariga olish xohishlari yo'qligi bilan izohlaydilar.

Biroq, Evropa davlatlarida fuqarolikka nisbatan ijobiy yondashuv mavjud. Masalan, "Buyuk Britaniyalik yoshlarning ko'pchiligi o'z mamlakatlarini qandaydir bir "umumevropa"ga almashtirishni xohlamaydilar, ular o'z xalqi o'tmishi va tarixini qadrlaydilar, doimo xotirlab turadilar va u bilan fahrlanadilar", - deb yozadi britaniyalik ekspert Piter Liddl⁶.

Darhaqiqat, Buyuk Britaniya aholisi boshqa millat vakillari o'rnak olishi lozim bo'lgan milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ulariga ega. Jumladan, ular qirollik va qirol (qirolicha)ni mamlakat tarkibiy tuzilmasining asosiy, muhim bo'lagi, millat tarixining ajralmas qismi sifatida tan oladilar, qirol (qirolicha)ga cheksiz hurmat ko'rsatadilar. Bu holat fuqarolarning mamlakat tarixiga bo'lgan ijobiy munosabatlarini anglatadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e'tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan fahrlanish, milliy iftixor tuyg'ularini singdirishda "pedagog-talaba", "tarbiyachi-tarbiyalanuvchi" munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita talaba-yoshlarga bog'liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta'lim jarayonida ularning jeamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta'minlash, shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o'zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj hamda qiziqishni qaror toptirishga e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiyot yo'nalishida tahlil olayotgan talabalarga mamlakat istiqbolini ta'minlashda mutaxassislik fanlarining o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligini tushuntirish, yoshlar ongida mustaqillikka mehr, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiluvchi dalillar, yurt taraqqiyotini ifodalovchi raqamlarni keltirish, Respublika hukumati tomonidan olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, Oliy Majlis sessiyalaridagi davlatimiz rahbari tomonidan berilgan ma'lumotlardan foydalanish, talaba-yoshlarning o'zlari ularni mukammal o'qib, erkin mushohada qilishlari, ularni millatimiz va davlatchiligimiz tarixi va qadimiy an'analarimiz bilan qiyoslab o'zlashtirishlari yaxshi natijalar beradi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasihatgo'ylikdan qochish kerak. Talabalarining "kattalik hissiga" tayanib, Vatan va el-yurt taraqqiyotida ularning bevosita mas'ul ekanliklari, tarixda otabobolarimiz hayoti yuksak ma'naviyat egasi ekanligimizga asos bo'lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo'shilgan holda, bo'lajak ma'lum kasb-kor egalari sifatidagi bilimlarini o'rgangan tartibda yondashish kerak bo'ladi.

Talaba-yoshlarda milliy ongni shakllantirishda quydagilarga etibor berish kerak, deb hisoblaymiz:

- talabalarga mashg'ulotlarini olib borishda talabalarining yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish;
- ta'lim-tarbiyaning ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta'limning eskicha uslub va tamoyillarini qo'llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik;

⁶ <https://www.facebook.com>

- ta'lim jarayonida tazyiq o'tkazmasdan ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tibor qaratish;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamfikirlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro'y berayotgan voqealar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish;
- talaba-yoshlarda g'oyalar o'z ma'no-mohiyatiga ko'ra bunyodkor yoki vayronkor bo'lishi haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;
- milliy g'oyaning insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillik biz uchun eng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash esa har birimizning muqaddas burchimiz ekanini talabalarning qalbi va ongiga singdirish.

Shu o'rinda, talabalarda milliy iftixor va milliy ong tuyg'ularini shakllantirishda zo'rlash, majburlash usullaridan qochish lozimligini qayta-qayta uqtirish lozim, deb o'ylaymiz.

Har qanday fikrni talaba -yoshlarga yetkazishda, bizning holatimizda, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda bilim, ko'nikma va malaka hosil qiluvchi o'qituvchi shaxsi va uning o'qituvchilik layoqati tarbiyalanuvchi tomonidan his qilinishi katta ahamiyat kasb etadi. Agar o'qituvchi obro'li bo'lsa, u qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar, beradigan ma'lumoti ishonarli va ta'sirchan bo'ladi.

Professor-o'qituvchining talabalarga yetkazadigan ma'lumotlari mazmuni va uni didaktik nuqtai nazardan qanday berilishi ham muhim ahamiyat kasb etishi pedagogikaga ayon.

Yoshlarda milliy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi materialning shakli:

- kitoblarda bayon etilgan bo'lishi;
- matnga oid maxsus ko'rgazmali qurollar tayyorlangan bo'lishi mumkin.

Ikkala holatda ham biz yozma nashr shaklini nazarda tutdik, chunki bu holatda ko'pchilikka manfaatli ma'lumotlar qo'ldan-qo'lga o'tib, o'z auditoriyasini kengaytirishi qulay bo'ladi; o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kitobiy matnlar yoki milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi ko'rgazmali qurollar qayta-qayta o'qilishi, hattoki yod olinishi mumkin bo'ladi; kitobiy tilda yozilgan biror matn murakkabroq, tushunarsiz bo'lsa, professor-o'qituvchi tomonidan, detallashtirilib tushuntirilib beriladi; yozma ma'lumotni tinglovchining o'zi alohida ham qiroat qilishi imkoniyati bo'ladi va hokazo.

Dars va darsdan tashqari vaqtlarda yoshlarda milliy ongni shakllantirishda pedagogik jihatdan e'tiborga olinishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat - qanday vositalar yordamida berilayotgan ma'lumotni yetkazish masalasidir. Kitoblar, tayyor ko'rgazmali qurollardan tashqari hozirgi kunda audio-video vositalar, multimedialar, videoslavdlar, masofali o'qitish, elektron versiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bizningcha, qo'yilgan maqsadga erishishda audio-vizual idrok etish vositalaridan o'rinli va unumli foydalanish yaxshi samara beradi.

«Tarbiya)» darsliklarida yoshlar ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi; umuman tarbiya nima, g'oyaviy tarbiya nima, g'oyaviy tarbiyaning maqsadi, mas'uliyati xususida, psixologik jihatlari haqida ma'lumot beriladi.

Xo'sh, har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi - har bir shaxs, ijtimoiy guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlash ekan, bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi.

Shu ma'noda, bizning holatimizda talaba-yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirish masalasi millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan fahrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish; o'zga millatlarni hurmat qilish; ajdodlar xotirasi oldida vorislik mas'uliyatini his qilish kabi tarbiya jarayonining jiddiy va kechiktirib bo'lmas vazifalari bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. -176.B
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq nashriyoti matbaa kontserni. 1999 yil, 144. 12-bet
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud ahloq. Toshkent, «O'zbekiston», 1992-yil, 15-16-betlar.
4. Abdullayev M.E. Etnopedagogik qadriyatlar vositasida talabalarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish tizimi: dis. Farg'ona - 2022.
5. Boboev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. -T.:Yangi asr avlodi, 2001. 3-bet.
6. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yohud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. -T.: 2000. 21-bet.
7. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish, omillari va vositalari. T., «Ijod dunyosi» nashriyot uyi. 2002 yil, 7-bet.

INNOVATIVE
ACADEMY